



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-iyul

VII-12-85-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish borasida 2025-yil 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman prokurori M.Nozimovning axboroti

Kattaqo‘rg‘on tuman prokururaturasi tomonidan hududda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik hamda huquqbazarliklarni oldini olish borasida 2025 yilning 6 oyi davomida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Yurtboshimizning ko‘rsatmalariga muvofiq, aholini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligi, sog‘ligi va mavjud muammolarini hal etib borish dolzarb vazifalar sifatida belgilab berilgan.

O‘z navbatida muammolarni hal qilinishi nafaqat aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolining ijobiy tomonga hal etilishi balki hududda jinoyatchilik va huquqbazarliklarni oldini olishga ham xizmat qilishi barchaga ayon.

Qayd etish kerak, tuman prokurururasining faoliyati qonuniylik va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ijrosini samarali ta’minalashga to‘sinq bo‘layotgan muammolarni aniq tahlillar asosida o‘rganib, ularni bartaraf etishga qaratildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda aholi farovonligini yaxshilashga qaratilgan qonunlar va Prezident qarorlari ijrosini ta’minalash borasida ko‘rilgan choralar, shuningdek, davlat organlari huquqiy hujjatlarining doimiy ravishda o‘rganilishi natijasida joriy yilning 6 oyida 279 ta prokuror nazorati hujjatlari qo‘llanildi va 146 nafar fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklandi.

Tuman prokurorining qarori va taqdimnomasi asosida 115 nafar shaxslar intizomiylar, ma’muriy, moddiy javobgarlikka tortildi, noqonuniy qarorlarga 25 dan ortiq protestlar keltirildi, fuqarolik ishlari bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on tumanlararo sudiga 2 mlrd. 857 mln. 116 so‘mlik yetkazilgan zararlarni undirish borasida 27 ta va Kattaqo‘rg‘on tumanlararo iqtisodiy sudiga 11 mlrd. 462 mln. 522 so‘mlik yetkazilgan zararni undirish borasida 17 ta da’vo arizalari kiritildi.

O‘tkazilgan tekshiruv va jinoyatlarni tergov qilish jarayonida 1 mlrd. 513 mln. 844 ming so‘mlik zararlarning undirilishi hamda mahalliy byudjetga tushishi ta’minalanib, qo‘pol qonun buzilishi holatlari bo‘yicha 6 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atildi.

Ijtimoiy qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni o‘rnatish davomida 6 ta tekshirishlar o‘tkazilib, 14 ta taqdimnomalar kiritildi, noqonuniy qarorlarga 20 ta protestlar keltirildi, 69 nafar shaxs intizomiy va ma’muriy javobgarlikka tortildi, 127 mln. 403 ming so‘mlik yetkazilgan zararlarni undirish borasida 3 ta va Kattaqo‘rg‘on tumanlararo Iqtisodiy sudiga 167 mln. so‘mlik yetkazilgan zararni undirish borasida 1 ta da’vo arizasi kiritilishi ta’minlanib, 25 nafar jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishi ta’minlanib, qo‘pol qonun buzilishi holatlari bo‘yicha 2 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilgan.

Shuningdek, tumanda 299.800 nafardan ortiq aholi mavjud bo‘lib bulardan 147.916 nafarini mehnat resurslari tashkil qiladi, ulardan 109.088 nafari iqtisodiy faol aholi hisoblanadi. 2025 yil o‘tgan davrida jami 1380 ishsiz fuqarolar.

Shuningdek, Davlat rahbari boshchiligidagi 2025 yilning 14 fevral kuni faol va tashabbuskor yoshlari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda berilgan topshiriqlar asosida hududlarda alohida ishslash talab etiladigan “Og‘ir toifa”dagi yoshlari bilan individual ishslash, ularni har tomonlama qo‘llab - quvvatlash, muammollarini aniqlash va bartaraf etish, ular o‘rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikni oldini olish borasida qator ishlari amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda tumandagi ishsiz yoshlarning 452 nafari band qilingan shundan 129 nafari doimiy ish o‘rinlariga va 323 nafari o‘z o‘zini band qilgan yoshlarni tashkil qiladi.

Bundan tashqari, tuman prokuraturasi tomonidan 2025 yilning 6 oylik davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan 25 ta targ‘ibot tadbirlari, shu jumladan tadbirkorlar bilan 17 marotaba uchrashuvlar o‘tkazilib, unda qatnashgan 230 nafar tadbirkorlar hamda 52 nafar fermer xo‘jaliklaridan 27 nafariga huquqiy maslahatlar berilgan, 55 nafar tadbirkorlarga amaliy yordam ko‘rsatildi.

Tuman prokururasining tashabbusi bilan 15 ta tadbirkorlik subyektlariga 3 mld. 860 ming so‘mlik kredit mablag‘lari olib berishda, 6 nafar tadbirkorlarga kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishda, 2 nafar tadbirkorlarga litsenziya olishda, va 9 nafar tadbirkorlarga boshqa amaliy yordamlar ko‘rsatilishi natijasida 19 ta qo‘srimcha ish o‘rinlari yaratilishiga erishildi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiysi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining VII chaqiriq o‘n ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish borasida 2025-yil 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan tuman prokurori M.Nozimovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman prokurori (M.Nozimov)ga:

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Davlat dasturlari ijrosini ta’minlash;

-fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish;

-mansabdor shaxslarning o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishdagi mas’uliyatini oshirish choralarini belgilash va amalga oshirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarda soliq intizomini mustahkamlash, budgetga qo‘srimcha tushumlar va mahsulot ishlab chiqarish hajmini

ko‘paytirish orqali narxlar barqarorligini ta’minlash, inflyatsiyaning oldini olishda mahalliy ijro hokimiyati organlari, soliq va moliya idoralari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyati va javobgarligini oshirish;

-jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini qonunda belgilangan muddatda ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

-tadbirkorlik subyectlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida ishlab hamkorlikda profilaktik tadbirlar o‘tkazib borish vazifasi topshirilsin;

-sog‘liqni saqlashga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

-yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini, ijtimoiy soha va boshqa infratuzilma obyeqtalarini qurish-ta’mirlash ishlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli hamda samarali foydalanilishi yuzasidan doimiy nazorat o‘rnatish;

-tumanda jinoyatchilikka, ayniqsa, korrupsiya va poraxo‘rlik, tovlamachilik, firibgarlik kabi jinoyatlarga va uyushgan jinoyatchilikning boshqa ko‘rinishlariga qarshi kurashish borasida keng jamoatchilik bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar o‘tkazib borish;

-aholi o‘rtasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining huquqiy targ‘ibotini yanada kengaytirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bunda, asosiy e’tiborni o‘zini- o‘zi boshqarish organlariga qaratish ishlarini amalga oshirsin.

3. “Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun” gazetasi tahririyati (O‘.Usmonov), tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov) ga tumanda aholining huquqiy ongi va huquqiy, madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil bajarilishi, mahallalarda huquqbazarlik va jinoyatchilikning hamda qonun buzilishlarini oldini olish bo‘yicha ishlarni “Qonun ustuvor – jazo maqarrar” tamoyili ostida amalga oshirilayotgan yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH